

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo‘nalishlari uchun BMI mavzulari

| № | BITIRUV MALAKAVIY ISHLAR MAVZULARI | IZOH |
|---|--|---|
| 1 | “Jizzax viloyatida ekoturistik va tarixiy-madaniy turizm” innovatsion veb-saytini yaratish | Jizzax viloyatining ekoturistik va tarixiy-madaniy turizm ob’ektlarini kompleks ravishda o‘rganiladi va ma’lumotlar banki yaratiladi. Ma’lumotlar bankidagi resurslar asosida Jizzax viloyatiga xorijiy va mahalliy turistlarni jalb qilish uchun “Innovatsion veb-sayt” lar yaratiladi. Bu bajarilgan ishlar natijasi, viloyat turizm qo‘mitasi va tur firmalar yordamida amaliyotga tabiiq qilish va tijoratlashtirish ishlari amalga oshiriladi. |
| 2 | O‘zbekiston tabiiy geografiyasi fanining ko‘rgazmali qurollari va ularni innovatsion tayyorlash usullari | Bitiruv malakaviy ishi doirasida bajarilgan loyiha natijasida, Jizzax viloyati maktabgacha va maktab ta’lim boshqarmasining geografiya fani o‘qituvchilari uchun ko‘rgazmali qurollar tayyorlash bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar beriladi va shuningdek, o‘zaro kelishilgan holda tayyor ko‘rgazmali qurollar ham yetkazib beriladi. |
| 3 | Jizzax viloyati suv resurslarining ekologik monitoringi va ularni baholash | Jizzax viloyatidagi barcha yer osti va yer usti suv resurslari dinamik o‘zgarishlari o‘rganilgan holda, unga ta’sir etuvchi omillar aniqlanadi. Viloyat hududidagi suv resurslarning ekologik monitoringi tayanch tajriba uchastkalar yordamida aniqlab va ularning holati baholanadi. To‘plangan ma’lumotlar asosida ma’lumotlar banki yaratilib, soha tashkilotlarga o‘zaro shartnoma asosida beriladi. |